O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 13 - may 144-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Sirdaryo viloyatida 2023-yil davomida bo‘sh yer uchastkalarini ijara huquqi bilan “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasi orqali sotuvga chiqarish uchun (0,01 ga maydonga) boshlang‘ich bahosini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-sonli qarorining 25-bandini ijrosini ta’minlash maqsadida viloyat Moliya bosh boshqarmasi, viloyat Davlat soliq boshqarmasi, Davlat Aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi hamda Davlat kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasining 2023-yil uchun “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida ijaraga berish huquqi bilan auksionga chiqarish uchun har bir tuman va shahar bo‘yicha bo‘sh yer uchastkalarining (0,01 ga maydonga) boshlang‘ich bahosini aniqlash narxlari va koeffitsientlari bo‘yicha takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Viloyatda 2023-yil uchun bo‘sh yer uchastkalarini ijara huquqi asosida “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida auksionga chiqarish uchun joylashgan hududidan kelib chiqib, viloyatning har bir tuman va shahar bo‘yicha (0,01 ga maydonga) boshlang‘ich bahosi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman va shahar hokimliklari 2023-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida yer uchastkalarini ijara huquqi asosida “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida auksion orqali sotishda mazkur qaror bilan belgilangan boshlang‘ich baholarga qat’iy rioya qilinishi

ta’minlansin.

3. Tuman va shahar hokimliklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun bo‘sh yer uchastkalarini 5 yildan 49 yilgacha bo‘lgan muddatlarda ijaraga berish hamda ijara to‘lovining minimal qiymati yer uchastkasini yillik soliq bahosidan kam bo‘lmagan miqdorda *(0,01 gektargacha yaxlitlanadi*) baholanishi belgilab qo‘yilsin.

4. Viloyat moliya bosh boshqarmasi (F.Kushakov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (J.G‘oyibov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (Z.Karimov), viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (A.Xudaynazarov), Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (B.Minasipov)ga bo‘sh yer uchastkalarini ijara huquqi asosida “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasi orqali auksionga chiqarish uchun (0,01 ga maydonga) 2024-yilga boshlang‘ich bahosini belgilash bo‘yicha takliflarni viloyat hokimining qarori loyihasi bilan joriy yilning 20-dekabr sanasigacha viloyat hokimligiga kiritish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror “Yangi Sirdaryo” gazetasida chop etilsin va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Mahmudaliev**

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 13 maydagi
144-9-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyatida ijaraga berilayotgan bo‘sh yer uchastkalarini joylashgan hududidan kelib chiqib, 2023-yil uchun har bir tuman va shaharlar bo‘yicha (0,01 ga maydonga) boshlang‘ich bahosini aniqlash narxlari va koeffitsientlari

№	Tumanlar va shaharlar nomi	0,01 ga yer maydoni uchun bir yillik soliq miqdori *(so‘m)*	Yer uchastkasini ijaraga berish muddati bo‘yicha (*5 yildan 49 yilgacha*)		Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish xarajati *(Bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobari)*	0,01 ga yer maydoni uchun boshlang‘ich narxi miqdori *(so‘m)*	Ijara muddati *(Misol uchun ijaraga berish muddati 5 yil bo‘lganda)*	Hisoblangan miqdori *(so‘m)*			
			1	Oqoltin tumani			168 000	5	84 000	1 500 000	1 752 000
2	Boyovut tumani	192 000	5	96 000	1 500 000	1 788 000					
3	Guliston tumani	216 000	5	108 000	1 500 000	1 824 000					
4	Mirzaobod tumani	259 200	5	129 600	1 500 000	1 888 800					
5	Sayxunobod tumani	216 000	5	108 000	1 500 000	1 824 000					
6	Sirdaryo tumani	230 400	5	115 200	1 500 000	1 845 600					
7	Sardoba tumani	168 000	5	84 000	1 500 000	1 752 000					
8	Xovos tumani	168 000	5	84 000	1 500 000	1 752 000					
9	Guliston shahri	234 000	5	117 000	1 500 000	1 851 000					
10	Yangiyer shahri	288 000	5	144 000	1 500 000	1 932 000					
11	Shirin shahri	240 000	5	120 000	1 500 000	1 860 000					